



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**QISHLOQ XO'JALIGIDA BILIM VA
INNOVATSIYALAR MILLIY MARKAZI**



LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

**LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTINING 110 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN
“LALMIKOR DEHQONCHILIKNING AHAMIYATI,
ILMIY ASOSLARI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING
INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARI”
MAVZUSIDAGI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI
19-may 2023-yil**

“ILM VA FAN” nashriyoti

Jizzax 2023

UO‘K: 63:005 (575.1)(082)
KBK 28.6
O‘ 17

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plamida boshqoli va dukkakli don, moyli, yem-xashak va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi, ularni begona o‘t, kasallik hamda zararkunandalardan uyg‘unlashgan holda himoya qilish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning zamonaviy usullarini takomillashtirish, boshqoli va dukkakli don, moyli, yem-xashak hamda boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda almashlab ekish hamda resurs tejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plami FAOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi va ICARDning Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqaviy vakolatxonasi ko‘magi doirasida chop etildi.

Tahrir hay‘ati:

**B.Xaydarov, A.Muratkasimov, Z.O‘sarov, X.Yusupov, K.Isakov, N.Umirov, M.Pokrovskaya,
Sh.Oripov, M.Jo‘rayev, A.Xoldorov, J.Nahalboyev, I.Mamatqulov**

Taqrizchilar:

T.Mamatqulov, S.G‘aybullayev, U.Qarshiyeva, N.Yusupov, S.Rustamov, Z.Ochilov.

**Ilmiy maqolalar to‘plami Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy Kengashining
2023-yil 19-apreldagi 11-sonli qarori bilan tasdiqlangan.**

Maqolalarda keltirilgan tadqiqot natijalariga, muallif tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarga tahririyat javob bermaydi.

o'rtacha qumochlik. Gumus miqdori kam, makro- va mikro elementlar yuqoridan pastga kamayib borgan. Tuproqlar va sizot suvi kuchsiz darajada sho'rlangan. Sizot suvlar sathini 2,0-2,5 metrda atrofida joylashgan.

Har ikkala tuproqlar oziqa (makro- va mikro-) elementlar bilan kam ta'minlangan. Lekin sug'oriladigan tuproqlarda bir oz yuqoriroq. Haydalma qatlami azot, fosfor va kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan. Lekin har ikkala tuproqlar turli darajada sho'rlanganligi, meliorativ, ekologik holati yaxshi emasligi ma'lum bo'ldi. Meliorativ, ekologik holati yomon, oziqa elementlarga kambag'al bunday tuproqlar sharoitini yaxshilash uchun muhim chora-tadbirlarni amalga oshirishni lozim bo'ladi. Tuproq unumdorligi, strukturasi yaxshilanishida qishloq xo'jaligida kompostga aylanadigan chiqindi-qoldiqlardan samarali foydalanishni keng yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muhammadjonov A.R. Qo'yi Zarafshon vodiysining sug'orish tarixi. Qadimgi davrdan to XX-asr boshlarida. -Toshkent: 1994. -36 b.
2. J.S.Sattorov, B.Q.Atoev. Kuzgi bug'doy navlari, tuproq va o'g'it //O'zbekiston Milliy Enciklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
3. Доспехов Б.А.Методика полевого опыта. М.1985 Агропромиздат.С.248-255.
4. Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии Издание 5-е. – Тошкент. 1977. 12-18 б.
5. A.J. Qushshoqov. Malikcho'l tog' oldi tekisliklarini sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir tuproqlaridagi sho'rlanish jarayonlari va shakllari. Avtoreferat. dis.b.f.n. -Toshkent. 2007. 4-9 b.

AZOTLI O'G'ITLARNING KUZGI BUG'DOYNING O'SISH, RIVOJLANISHIGA VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI (Buxoro tumani misolida)

Sharipov Odiljon Bafoevich *b.f.b.f.d (PhD)*, dotsent, Raxmatov Olim Nasulloevich, Karimov Botir Sharopovich

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Buxoro ilmiy-tajriba stansiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyati tuproq iqlimi sharoitida intensiv tipdagi Krasnodar seleksiyasi mansub Vexa va Gurt navlarida azotli o'g'itlar me'yorlarining kuzgi bug'doyning o'sish, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri o'rganilgan, hamda maqbul me'yorlari ishlab chiqarishga tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: Azotli o'g'itlar, Voha, sug'oriladigan, gumus, mineral, qurg'oqchil, fenologiya, Vexa, Gurt, oziqlantirish, vegetatsiya, ekish muddati, hosildorlik.

Аннотация: В данной статье изучено влияние норм азотных удобрений на рост, развитие и урожайность озимой пшеницы сортов Vexa и Гурт краснодарской селекции интенсивного типа в почвенном климате Бухарской области и рекомендовано производить оптимальные нормы.

Ключевые слова: Азотные удобрения, Оазис, орошение, перегной, минеральные, аридные, фенология, Vexa, Гурт, подкормка, вегетация, сроки посадки, продуктивность.

Annotation: In this article, the influence of nitrogen fertilizer norms on the growth, development and yield of winter wheat varieties Vekha and Gurt of Krasnodar intensive breeding in the soil climate of the Bukhara region was studied and it was recommended to produce optimal norms.

Key words: Nitrogen fertilizers, Oasis, irrigation, humus, mineral, arid, phenology, Vekha, Edge, top dressing, vegetation, planting dates, productivity.

Bug'doy dunyoning turli mintaqalarida yetishtirilsa-da, uning o'rtacha hosildorlik darajasi iqlim sharoiti, yer unumdorligi, tanlangan bug'doy navining hosildorligiga qarab bir-biridan keskin farq qiladi. Shimoliy va Markaziy Yevropaning mo'tadil iqlim sharoiti bug'doydan yuqori hosil olish imkonini beradi, quruq, qurg'oqchil yoki sovuq hududlarda bug'doyning hosildorligi keskin kamayib borishi tabiiy hol. Jahon oziq-ovqat xavfsizligi

qo‘mitasi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ekinlar hosildorligi oshmasligini bugungi kunning asosiy muammolaridan biri deb hisoblaydi. Zero, dunyo aholisining umumiy miqdori muttasil o‘sib borishi kishilarning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji ham oshishini ko‘rsatadi.

Kuzgi bug‘doy tuproq unumdorligiga talabchan. Undan yuqori hosil olish uchun hududning tuproq-iqlim sharoitlari, yetishtirish agrotexnologiyasi va ko‘plab boshqa omillar muhim ahamiyat kasb etadiki, bu esa kuzgi bug‘doy yetishtirish agrotexnologiyasi borasida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqot maydonining tuproqlari. O‘rganilgan hudud tuproqlari cho‘l zonasida tarqalganligi va ekstraarid iqlim sharoitlariga ega bo‘lganligi sababli organik moddalar intensiv mineralizatsiyaga uchraydi va uning natijasida shakllangan azotning mineral formasi ko‘p yillik sug‘orish jarayonlari ta‘sirida pastki qatlamlariga yuvilib ketadi hamda S:N nisbati kesma bo‘yicha yuqori gorizontlaridan quyi gorizontlariga ko‘ra kamayib boradi, lekin voha o‘tloqi-allyuvial tuproqlarida ko‘p yillik namlanish natijasida mineralizatsiya jarayoni sustlashgan bo‘lib S:N nisbati pofil bo‘yicha keskin kamaymaydi. Voha o‘tloqi tuproqlari haydalma va haydalma osti qatlamlarida azot miqdori–0,058-0,082 % ni, pastki qatlamlarida 0,028-0,041 % tashkil etadi. CO₂ karbonatlar kesma bo‘yicha keskin farq qilmaydi.

Biz Buxoro viloyati tuproq iqlimi sharoitida mineral o‘g‘itlarning kuzgi bug‘doyning o‘shish va rivojlanish davrlariga, hosil elementlariga va asosiy hosildorlik ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish maqsadida Krasnodar seleksiyasiga mansub istiqbolli kuzgi bug‘doyning Vexa va Gurt navlarida tadqiqotlar olib bordik.

Sug‘oriladigan yerlarda yerni o‘z muddatida ekishga tayyorlash intensiv texnologiyaning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Tajriba dalasi g‘o‘za qator oralariga ekilgan bug‘doydan bo‘shagan maydon bo‘lib, 35-40 sm chuqurlikda shudgorlandi dala tekislanib katta hajmdagi kesaklar (0-3sm) maydalandi. Dalada chellar olinib 500 m³ suv bilan chala sug‘orildi va baland joylari aniqlanib guruh asosida texnikalar yordamida tekislanib chiqildi. So‘ngra kuzgi nam to‘plash ishlari amalga oshirildi.

Tajriba dalasiga elita urug‘lar maqbul oktyabr oyining ikkinchi o‘n kunligida, gektariga 5 mln dona unuvchan urug‘ hisobida ekildi. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlar ekishdan oldin 100% miqdorda kiritildi. Tajriba 3-qaytariqda 4 variantdan iborat bo‘lib, hisobga olinadigan maydon 100 m² ni tashkil qildi. Dala tajribasida kuzgi bug‘doyning oziqlantirish qo‘yidagicha amalga oshirildi.

1. Ekishdan oldin-20%
2. Tuplash davrida -30%
3. Naychalash davrida -30%
3. Oziqlantirish naychalash davrining oxiri gullash davrining boshlanishida-20%

1-jadval

Azotli o‘g‘it me‘yorlarining kuzgi bug‘doyning Vexa va Gurt navlarining hosildorligiga ta‘siri

| Variantlar | O‘simlik bo‘yi, (sm) | Mahsuldor poyalar (dona) | Mahsulsiz poyalar, (dona) | 1000 dona don vazni, (gr) | Boshqoq uzunligi, (sm) | Hosildorlik, s/ga |
|-----------------------|----------------------|--------------------------|---------------------------|---------------------------|------------------------|-------------------|
| VEXA | | | | | | |
| Nazorat (o‘g‘itsiz) | 93,7 | 378 | 16 | 36,5 | 10,1 | 39,2 |
| Fon-N ₁₈₀ | 100,6 | 486 | 14 | 40,6 | 12,4 | 64,8 |
| Fon -N ₂₁₀ | 102,4 | 496 | 13 | 42,9 | 12,1 | 72,4 |
| Fon -N ₂₄₀ | 103,8 | 495 | 11 | 43,1 | 12,8 | 78,9 |
| GURT | | | | | | |
| Nazorat (o‘g‘itsiz) | 94,0 | 398 | 18 | 37,1 | 9,8 | 38,6 |
| Fon -N ₁₈₀ | 101,4 | 464 | 12 | 40,7 | 11,2 | 60,1 |
| Fon -N ₂₁₀ | 103,1 | 498 | 9 | 41,2 | 12,4 | 68,2 |
| Fon -N ₂₄₀ | 105,8 | 502 | 8 | 44,2 | 13,1 | 75,4 |

Izoh: Fon P₁₂₀ K₆₀

Tajribada aniqlandiki, azotli o'g'itlarning ortishi bevosita bir boshqning uzunligi, boshqdag boshqchalar soni va don soniga, 1000 dona vazniga ta'siri turlicha ekanligi kuzatildi. Nazorat (o'g'itsiz) variantida bir boshqning uzunligi o'rtacha ikkala navda 10 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, Fon+N₂₄₀ variantida esa 13,0 sm ni, nazorat variantiga nisbatan 2-3 sm yuqori bo'ldi. Qolgan variantlarda ham azotli o'g'itlar me'yoring ortishi bilan kuzgi bug'doyning asosiy hosildorlikka ta'sir ko'rsatadigan hosil elementlarining yuqoriligi kuzatildi.

O'simliklarning pishish davrlari ikkala navda ham nazorat (o'g'itsiz) variantlarida erta boshlandi, bug'doyning mum va to'liq pishish davr oralig'ida o'simlik barglari 100% sarg'ayib ostki bargshlaridan quriy boshladi. Nazorat variantida Vexa 209-kunda, Gurt navi esa 218-kunda pishgan bo'lsa, azotli o'g'it me'yori oshgan variantlarga nisbatan 16-16 kun oldin pishib yetildi. Azotli o'g'itlar me'yori oshgan sari uning vegetativ massasi ortib boradi, bu esa kuzgi bug'doy navlarining rivojlanish fazalarini o'tishini kechiktiradi.

Azotli o'g'itlar me'yoring ortishi mahsuldor poyalar soning ortishiga olib keldi, albatta har bir mahsuldor poya boshqdan iboratdir. Vexa navida nazorat variantiga nisbatan 1000 dona don vazni 6,6 gr gacha, Gurt navida esa 7,1 gr ortganini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Olib borilgan tadqiqotlarimizga ososlanib Buxoro viloyati qadimdan sug'oriladigan o'tloqi- allyuvial tuproqlari sharoitida Intensiv tipdagi istiqbolli kuzgi bug'doyning Vexa va Gurt navlari uchun azotli o'g'itlarning maqbul me'yori N₂₄₀ P₁₂₀ K₆₀ kg/ga bo'lganida Vexa navidan 78,9 s/ga, Gurt navidan esa 75,4 s/ga hosil olindi. Bu navlar azotli o'g'itlarga talabi yuqoriligi aniqlanib, iqtisodiy samaradorlik natijasining ko'rsatishicha yuqori natija ikkala navda ham 4 variantda qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Buxoro ilmiy tajriba stansiyasi olib borilgan tajribalardan aniqlandiki, Buxoro viloyati sharoitida istiqbolli intensiv tipdagi kuzgi bug'doy navlarida yillik o'g'it me'yori gektariga, azot – 240 kg, fosfor – 120 kg, kaliy – 60 kg bo'lganda yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sharipov Odiljon Bafoyevich, Lazizakhon Gafurova Dilafruz Makhkamova, Gulchekhra Nabiyeva BIODIAGNOSTIC INDICATORS OF IRRIGATED SOILS OF BUKHARA OASIS Solid State Technology Blind Peyer Reviyew Referred Journal Volume: 63 Issue:6 Publication Year: 2020, 105-117

2. Sharipov.O.B., Gafurova L. A., Kadirova D. A. Biological activity of oasis soils of the desert zone and the way of their optimization ISSN2411-6467 DOI:10.31618/ESU.2413-9335.2019.2.69 YEVRAZIYSKIY SOYUZ UCHENYIX (YESU) Yejemesyachniy nauchniy jurnal.-Moskva, № 12 (69) / 2019 2 chast., str- 27-32

3. B.A.Sulaymonov, B.S.Boltayev, R.Sh.Tillayev, Sh.X.Abdualimov Kuzgi bug'doy va g'o'za yetishtirish asoslari., O'quv qo'llanma Toshkent-2017, 12-18 bet.

4. M.I. Axmedov, O.B.Sharipov, Buxoro viloyati sug'oriladigan tuproqlarida kuzgi bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasi., O'quv uslubiy qo'llanma Buxoro-2022, 17-18 betlar.

UO'K 633. 18: 115.12.

TAKRORIY EKIN SIFATIDA SHOLI EKISH MUDDATLARINING O'SUV DAVRIGA TA'SIRI

Abduraximov Nurali Normamatovich, q.x.f.n., dotsent,
Allazov Otabek Chori o'g'li – magistr, Allayorov O'rol Soat o'g'li - magistr
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

Annotatsiya: *Dunyo aholisi sonining ortib borishi bilan bir qatorda guruch mahsulotlariga bo'lgan ta'lab ham ortib bormoqda. Shu bois sholi yetishtirishning miqdori jumladan AQSh qishloq xo'jaligi depertamenti (USAID) ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yili guruch ishlab chiqarish 496,40 million tonnani tashkil etgan, bu yil esa 503,17 million tonna*

| | |
|---|-----|
| <i>Қодирова Д.А., Сафарова Н.Р., Сафаров Б.Қ.</i> Лалми типик бўз тупроқларнинг кимёвий ва агрокимёвий хоссаларининг тавсифи..... | 184 |
| <i>Аликулов С.М., Абдуллаев Ф.Х., Широкова Ю.И., Мансуров Х.Г.</i> Внедрение нового сорта маша «Баркарор» при использовании интегрированных инновационных технологий управления земельно-водными ресурсами..... | 191 |
| <i>Юсупов Х, Хайдаров Б, Нишанов Ж.</i> Лалмикор майдонларда тупроққа ишлов бериш технологияларининг кузги буғдой туп сонининг ўзгариши ва ҳосилдорлигига таъсири..... | 194 |
| <i>Юсупов Х, Зарипов Ҳ, Ф.Ҳамраев.</i> Навоий вилоятининг ўтлоқи сур тусли тупроқлари шароитида турли меёрдаги маъданли ўғитларнинг кузги буғдойнинг туп сонига, биологик яшовчанлигига таъсири..... | 199 |
| <i>Саломов Ш.Т., Муҳаммадов Й.А., Ғозиев У.Л.</i> Ғўза қатор оралиқларини толанинг сифат кўрсаткичларига боғлиқлиги..... | 202 |
| <i>Покровская М.Н., Юсупов Х, Юсупов Н.Х.</i> Влияние агротехнологических приемов на накопление общей биомассы и урожайность озимой пшеницы..... | 206 |
| <i>O'roqov S.X., Oltiboyeva F.M.</i> Loviyaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati..... | 209 |
| <i>Atoev B.Q.</i> Ishlab-chiqarish tajribasi tuproqlarida kuzgi bug'doyning o'sish-rivojlanishiga o'g'itlarni ta'siri..... | 211 |
| <i>Atoev B.Q.</i> Malikcho'l hududida tarqalgan tuproqlar xossalariga iqlimning ta'siri..... | 219 |
| <i>Sharipov O.B., Raxmatov O.N., Karimov B.Sh.</i> Azotli o'g'itlarning kuzgi bug'doyning o'sish, rivojlanishiga va hosildorligiga ta'siri (buxoro tumani misolida)..... | 223 |
| <i>Abduraximov N.N., Allazov O.Ch., Allayorov O'.S.</i> Takroriy ekin sifatida sholi ekish muddatlarining o'suv davriga ta'siri..... | 225 |
| <i>Burxanova D.U., Sodiqova GS., Nigmanova L.A., Nodirova N.J.</i> Sug'oriladigan tipik bo'z, o'tloqi tuproqlarning agrokimyoviy va kimyoviy xossalari..... | 228 |
| <i>Nurkabilov Sh.A., G'aybullayev G'.S.</i> Kuzgi bug'doyning rivojlanish fazalariga makro va mikro o'g'it meyorlarining ta'siri..... | 232 |
| <i>Xayitov M.A., Axmedov M.S., Miyzamonov D.J., Turaboyeva B.M.</i> Mineral o'g'itlar turli me'yor va nisbatlarining kuzgi bug'doy don hosiliga ta'siri..... | 239 |
| <i>Мамбетназаров Е.Б., Турганбаев А.К.</i> Изменение динамики водорастворимости солей на почве в коротко ротационном севообороте..... | 243 |
| <i>Умирзаков А.Х., Мақсадов Х.Э., Шарипов Ю.</i> Жиззах вилояти суғориладиган ерларда ғалла, дуккакли экин, сидерат ва ғўза алмашлаб экишнинг аҳамияти..... | 248 |